



ALISHER NAVOIY VA OGAHIIY: YETUK SHAXS TALQINIDA AN'ANA VA DAVOMIYLIK

O'rozaliyeva O'lmasoy Kubay qizi
TDSHU 1-kurs magistranti

Annotatsiya: ushbu maqolada Alisher Navoiy va Ogahiy ijodida yetuk shaxs talqini va uning an'ana hamda davomiylik asosidagi rivojlanishini tahlil qiladi. Maqolada Navoiy ijodidagi komil inson konsepsiyasi falsafiy va didaktik ruhda yoritilgan bo'lsa, Ogahiy ijodida bu talqin psixologik realizm va lirik kechinmalar orqali yanada boyitilganligi ko'rsatiladi. Shuningdek, maqolada ushbu ikki mutafakkir ijodidagi umumiy va farqli jihatlar, ularning zamonaviy shaxs rivoji va ma'naviy tarbiyada dolzarbligi ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: Navoiy, Ogahiy, barkamol shaxs, adolat, saxiylik, komillik

O'zbek mumtoz adabiyotida yetuk shaxs, ya'ni komil inson masalasi markaziy mavzulardan biri hisoblanadi. Bu g'oya adabiyot orqali nafaqat badiiy-estetik, balki axloqiy, falsafiy va psixologik mazmun kasb etadi. Ayniqsa, Alisher Navoiy va Ogahiy ijodida yetuk shaxs talqini an'ana va davomiylik asosida rivojlangan. Mazkur maqolada ushbu ikki mutafakkir ijodida yetuk shaxs konsepsiyasining umumiy va farqli jihatlari tahlil qilinadi. Alisher Navoiy asarlarida yetuk shaxs — bu avvalo ma'rifatli, iymonli, sabrli va jamiyat oldida mas'uliyatni his qiladigan insondir. U komil insonni nafaqat shaxsiy kamolotga erishgan, balki xalq va jamiyat manfaatini o'z manfaatidan ustun qo'ya oladigan shaxs sifatida tasvirlaydi. Navoiy uchun yetuklik — ilm, axloq va amal birligidir. Uning qahramonlari ichki nafsni jilovlash, adolat va halollik yo'lida sobit turish orqali ruhiy yuksaklikka erishadi.

Odamiy ersang demagil odamiy,
Onikim yo'q xalq g'amidin g'ami.

Navoiy bu hikmat orqali komil inson hamisha xalq dardini o'ylab, uning xizmatida bardavom turishi kerak ekanligini ta'kidlaydi.

Tabiatga har neki odat bo'lur,

Chu eskirdi odat tabiat bo'lur.

Ushbu hikmatda inson o'z tabiatiga e'tibor qaratishi kerak deydi. Tabiatdagi xulq bir kun odatga aylanishini ta'kidlaydi. Uydagi hikmatda esa so'zning qadr-qimmatini bilish kerakligini va nafsga qul bo'lmaslik lozimligini aytadi:

Ko'p demak so'zga mag'rurlik

Va ko'p yemak nafsg'a ma'murlik.



Navoiy ijodida davlat boshqaruviga doir hikmatlardan birida adolatli shoh yurtni obod etadi, adolati buzuk shoh esa o'z boyligini ko'paytirish bilan ovvora bo'lishini aytdi:

Shohki ish adl ila bunyod etar,

Adli buzuk mulkni obod etar.

Muhammad Rizo Erniyozbek o'g'li Ogahiy o'zbek mumtoz adabiyotining Alisher Navoiydan keyingi ulkan siymalaridan biridir. Ogahiy Navoiy boshlab bergan an'anani davom ettirib, yetuk shaxs masalasini yanada hayotiy va psixologik jihatdan chuqurroq yoritadi. Ogahiy ijodida yetuk shaxs — o'zini anglagan, his-tuyg'ularini nazorat qila oladigan, sabr va tafakkur bilan ish tutadigan insondir. Shoir insonning ichki kechinmalariga, ruhiy iztiroblariga alohida e'tibor qaratib, yetuklikka eltuvchi yo'lning murakkab va mashaqqatli ekanini ta'kidlaydi. Bu hol Ogahiy ijodida psixologik realizm unsurlarining kuchli ekanini ko'rsatadi. Ogahiy ijodida ham insoniylik juda yorqin va aniq ifoda topgan. Ogahiy ijod orqali insoniyatni, xususan yoshlarni ezgulik, yaxshilik, ilm-ma'rifat tomon intilishga undagan. Saxiylilik mavzusidagi hikmati quyida keltirilgan:

Bu kun ilgingda turg'on choqda naqding xayru ehson qil –

Ki, tongla naqd bir yon borg'usi, har bir qo'lung bir yon.

Qo'lingda borini ehson qil, bugun qo'lingdagi naqt, ertaga bo'lmasligi mumkin. Ya'ni vafot etgach, qo'ling bir yonda, naqting bir yonda qoladi, demoqda. Ogahiy ijodida do'stlik, o'zaro hurmat masalalari ham ifoda topgan:

Boqib begonalarg'a solma ko'zdin oshnolarni –

Ki, oxir oshnodur oshno, begona-begona.

Yangi insonlar bilan tanishganda eski do'stlarni unutmaslik kerak. Zero oxir-oqibatda do'st do'stligini, begona esa begonaligini qiladi, demoqda.

Qadam aylabon ilm yo'lida bosh,

Hunar kasbida aylar erdim talosh.

Ne tunlar manga xobi rohat edi,

Ne kunlar zamonni farog'at edi.

Ushbu hikmatida Ogahiy o'zi misolida jamiki odamlarga ilm izlanish yo'lida sobit turish kerak ekanligini tushuntiradi. Kun-u tun orom bilmay, ilm tomon qadam tashlash kerakligini uqtiradi.

Ogahiy o'z zamonasining hukmdorlarini ham ijod yo'li bilan adolatli ish qilishga undagan. Davlat boshqaruvi haqida ko'plab oqilona fikrlar bildirgan.

Sultoni odil asrining har bir kuni Navro'z erur.

Ogahiy adolatli hukmdor davrida xalqning har bir kuni Navro'z bayramidek o'tishini hikmat qilib aytadi.

Mard esang ozod bo'l bandi tama'dinkim, qilur

El qo'lidin tu'ma yerga mayl benomus qush.





Yuqoridagi hikmatda Ogahiy mardlik haqida juda chiroyli mulohaza yuritadi. Deydiki, mard bo'lsang, ozod qush kabi bo'l. Ozod qushlar odamlar qo'lidan don yeyishga moyil bo'lmaydi. Bu bir jihatdan qaralganda, korrupsiya illatidan ham qaytarmoqda deb talqin etsak, mubolag'a bo'lmasa kerak.

Ogahiy dunyo ne'matlariga bog'lanib qolmaslikka undaydi. Chunki dunyo ne'matlari afsonlar kabi ekanini, ikkalasi ham uyquga, g'aflatda qoldirishini quyidagi hikmatida ifodalaydi:

Keldi asbobi jahon avsofi g'aflat mujibi,
Ne uchunkim, uyqu hosil bo'lg'usi afsonadin.

Ogahiy va Navoiy ijodini qiyosiy tahlil qilar ekanmiz, ularni bog'lovchi umumiy jihatlar yaqqol namoyon bo'ladi. Har ikki ijodkor uchun yetuk shaxs — axloqan pok, ruhan bardoshli va ijtimoiy mas'uliyatli insondir. Navoiy bu g'oyani ko'proq falsafiy va didaktik ruhda ifodalagan bo'lsa, Ogahiy uni shaxsiy kechinmalar, ichki monolog va lirik iztirob orqali yoritadi. Shu jihatdan Ogahiy Navoiy an'analarini saqlagan holda, ularni yangi badiiy-psixologik bosqichga olib chiqqan. Bugungi kunda yetuk shaxs tushunchasi psixologiya va pedagogika fanlarida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Navoiy va Ogahiy ijodidagi yetuk shaxs modeli zamonaviy shaxs rivoji nazariyalari bilan uyg'unlashadi. Ularning asarlarida o'zini boshqara olish, hissiy barqarorlik, ma'naviy mas'uliyat kabi sifatlar ilgari suriladi. Bu esa mumtoz adabiyotning hozirgi davr uchun ham dolzarbligini tasdiqlaydi. Alisher Navoiy va Ogahiy ijodida yetuk shaxs talqini uzviy an'ana va davomiylik asosida shakllangan. Navoiy tomonidan yaratilgan komil inson konsepsiyasi Ogahiy ijodida yanada boyitilib, ruhiy va psixologik jihatdan chuqurlashtirilgan. Ushbu meros bugungi yosh avlodni ma'naviy barkamollik, sabr-toqat va o'zini anglash ruhida tarbiyalashda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hikmatlar. (Sharh va izohlari bilan). Toshkent, 2022.
2. G'afurov, O. (1985). Navoiy ijodida insoniylik va axloqiy qadriyatlar. Toshkent: Fan.
3. Ziyo, M. (2012). Alisher Navoiy va insoniylik g'oyalari. Toshkent: Ma'naviyat.
4. Qodirov, S. (2009). Xamsa tahlili va Navoiy asarlarining ma'naviy-psixologik ahamiyati. Toshkent: Akademnashr.
5. Islomov, T. (2015). Navoiy asarlari orqali yoshlar tarbiyasida ma'naviy qadriyatlarni shakllantirish. Toshkent: O'zbekiston Milliy Universiteti Nashriyoti.
6. S.Rajabova. Ogahiy g'azallari tahlili. "Til va adabiyot ta'limi" jurnali. 2013. №11.
7. Z.Hamidov. Ogahiy shariyatining tili xususida. "Til va adabiyot ta'limi" jurnali. 2009. №10.
8. Fанихўжаев Ф. Огаҳий асарларининг тавсифи (каталог). Тошкент, 1986.

